

INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING MUHIM VAZIFALARI

Zakrillayeva Umida Nutfulloyevna

Buxoro viloyati Romitan tumani 35-maktab amaliyotchi psixologi

Annotasiya: Inklyuziv ta'lim—hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, butun hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va samarali ta'lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta'lim bu shunday ta'limtarbiya jarayoniki, unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda, o'z uyi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktablarda, o'z tengqurlari bilan birga ta'lim olishi demakdir.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim, uydagi ta'lim, resurs o'qituvchi, integratsion ta'lim.

KIRISH

"Inklyuziv ta'lim" atamasi inglizcha „inclusif“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, „o'z ichiga oladi“ deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'limning maqsadi—alohida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, umumta'lim muassasalarida to'laqonli ta'lim olishlarini ta'minlash, ta'lim muassasalarida har bir bola uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'limning turli shakllari tashkil etilgan: maxsus ta'lim, uydagi ta'lim, inklyuziv, integratsion ta'lim va muruvvat uylari. Maxsus ta'lim - bolalarning muammolari bo'yicha maxsus tashkil etilgan maktab-internatlari, maktablar; uydagi ta'lim- ta'lim muassasalarida o'qish imkoniyatiga ega bo'lmagan bolalar uchun oilada tashkil etiluvchi ta'lim; inklyuziv, integratsion ta'lim - umumta'lim muassasalarida

tashkil etiluvchi uyg'un ta'lim; muruvvat uylari - rivojlanishida og'ir nuqsonlarga ega bolalar uchun internat tipida maxsus tashkil etiluvchi ta'lim hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari ikki xil bo'ladi: xorijiy va milliy. Xorijiy asoslar "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"(1948-yil), "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi konvensiya(1989-yil), "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi deklaratsiya(1975-yil), "Ta'lim nima uchun" umumjahon deklaratsiyasi(1990-yil), Salamanka bayonoti(1994-yil), Dakar deklaratsiyasi(2000-yil) ga tayanadi. Milliy asoslarni esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi(1992-yil), "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonun (1991-yil), "Ta'lim to'g'risida"gi qonun(1997-yil), "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonun (2008-yil), "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-farmon (2017-yil), "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5712-farmon(2019-yil) lar tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'limga jalb qilinmagan nogiron bolaning hayot yo'li: 7 yoshgacha uyida bo'ladi. 10 yoki 12 yil maxsus ta'lim muassasasi(internat,maktab)da,o'zi kabi bolalar bilan tahsil olganda,sog'lom insonlar bilan muloqoti birmuncha cheklangan bo'ladi. Bitirib chiqib,sog'lom insonlar orasida samarali yashab qolishi uchun yana kimningdir yordamiga muhtoj bo'ladi, bu davrda bola 19 yoshga kirgan bo'lib ota-onasi ham o'rta yoki undan katta yoshli bo'ladi,kollej yoki boshqa turdagi ta'limga jalb etilmasa,bu shaxs oilasi qaramog'ida qoladi chunki aksariyat ota-onalar avaylash maqsadida uyda boqib o'tirishga harakat qiladilar.Sabab: farzandining sog'lom insonlar orasida ishlab yoki boshqa munosabatlarga kirishishiga ishonchi yetmaydi.Boz ustiga ular atrofdagilarning farzandiga nisbatan salbiy munosabat qiladi degan xavotirda bo'ladilar. Natijada imkoniyati cheklangan shaxs tor doiradagi kishilar jamoasida qolishga nahkum bo'ladi.Kech oila quradi.Agar turmush o'rtog'i ham o'zi kabi bo'lsa,ota-ona yana kichik oilani "tortishi" ga to'g'ri keladi.Ular bolalik bo'lsa, yana mas'uliyat ko'payadi.Biroq,bu davrda ota-onaning yoshi ancha ulg'ayib ularning o'zlari ham

o'zgalar g'amxo'rligiga muhtoj bo'lishlari mumkin. Demak, ota-ona keksalikka, shu bolaning taqdirini o'ylash bilan umr kechiradi..

Imkoniyati cheklangan bola inklyuziv ta'limga erta jalb etilsa, mahallada bolalikdan qo'shni bolalar bilan o'ynaydi, ular bilan tanishadi, milliy qadriyatlarni anglay boshlaydi. Maktabgacha ta'lim davrida atrofdagi sog'lom insonlar va tengdoshlari bilan muloqotga, erta o'z-o'ziga o'rganadi, maktab ta'limiga tayyor bo'ladi. UO'TM da to'siqlar, muvaffaqiyatlar va kelajakka ishonch, toblanish davrida sog'lom odamlar bilan muloqotda davom etadi, atrofdagilarning salbiy va ijobiy qarashlarida duch kelayotganini anglaydi va ularga nisbatan o'zining mustaqil pozitsiyasini topib oladi. Endi u mustaqil hayotga qadam qo'yadi mustaqil fuqaro sifatida o'qishi, ishlashi, turli munosabatlarda ishtirok etishga tayyor. Ota-ona va yaqinlari uning tashqariga chiqishidan xavotirga tushmaydi. Jamiyatda uning kimligi, nimaga qodirligini bilgan, taniganlar unga ishonadi. Natijada u oila qurish, oilasini boqish imkoniga ega bo'ladi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim ilk asoschilari va olimlari. 1996-yilda xorijiy delegatsiya mamlakatimizga kelib, ilk muzokaralarni o'tkazgan. Ushbu muzokaralar A. Avloniy nomidagi XTTXQTMOI Maxsus ta'lim kafedrasi va RTM maxsus ta'lim bo'limi va Nizomiy nomidagi TDPU Defektologiya fakulteti professor o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilgan.

O'zbekistonlik olimi R. Sh. Shomahmudova mamlakatimizga boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik orqali ilk bor Angliya tajribasini olib kirishga muvaffaq bo'lgan. Olima rahbarligida RTM da "Inklyuziv ta'lim"ga bag'ishlangan xalqaro konferensiya tashkil etilgan.

YUNICEF xalqaro tashkiloti va XTB hamkorligida qator loyihalar amalga oshirilgan. Ushbu loyihalarining koordinatorlari sifatida O'zbekistonlik olimlar professor L. Mo'minova dotsent U. Fayziyevlar ish olib borganlar.

Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim amaliyoti respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi tomonidan olib borilayotgan loyihalar asosida takomillashib bormoqda. Muammolar aniqlanib, tegishli yechimlar topish borasida tajriba sinov ishlari olib borilmoqda.

Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990-yildan buyon alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqyosida deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish – eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir. Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili. O'tgan yigirma yil davomida alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqyosida bo'lib, qishloqlardagi hududlarda hali-hamon alohida yordamga muhtoj bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham alohida yordamga muhtoj bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda, barcha alohida yordamga muhtoj bolalarni qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim. Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili. Bog'lanish bu – so'zning zamirida ommaviy binolarning sifati, ayniqsa, alohida yordamga muhtoj bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo'lishi kabilar yotadi. Bola maktab binosiga zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli kira olmaganligi yoki maktab hojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlanmasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Yangi maktab binosi alohida yordamga muhtoj bolalarning ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Shubhasiz, alohida yordamga muhtoj bolalar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan

bogʻlanishlarni yaratish inklyuziv taʼlimning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi. Markazlashtirilmagan boʻlishi tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni quyidagicha ifodalaniladi: A) Inklyuziv taʼlim xizmatlari umumiy taʼlim tizimining integratsiya qilingan qismi boʻlishi kerak. B) Inklyuziv taʼlim tizimidagi vazifalar mahalliy taʼlim organlariga javobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim. Optimal integratsiyaga erishish uchun markazlashtirilmagan boʻlish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao boʻladi. Inklyuziv taʼlimning vazifalari alohida yordamga muhtoj bolalarga oʻz ota-onalari bilan birga boʻlish, ularga xuddi tengdoshlari kabi oʻzlariga yaqin boʻlgan maktablarda taʼlim olish imkonini beradi. Bu ularda shaxsiy sifatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Alohida yordamga muhtoj bolaning normal rivojlanishiga halaqit berish, nogironlikdan ham ogʻirroq holatlarga olib kelishi mumkin. Inklyuziv taʼlimda kompleks yondashishi tamoyili. Alohida yordamga muhtoj bolalarga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa alohida yordamga muhtoj bolalar uchun taʼlim masalasini rejalashtirayotganda uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda reja tuzish talab etadi.

Bu tamoyilning mohiyatida yordamga muhtoj bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Alohida yordamga muhtoj bolalar taʼlimi boshlangʻich va oʻrtamaxsus taʼlimni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Alohida yordamga muhtoj bolalarning kasb-hunar taʼlimi va oliy taʼlimi ham amalga oshirilishi talab etadi. Chunki inklyuziv taʼlim tizimining vazifalaridan biri alohida yordamga muhtoj bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini taʼminlashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. Pedagogik ta'lim innovatsiyon klasteri, 1(1), 350-352.
2. Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inkluyziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inklyuziv ta'lim, 1(2), 111-113.
3. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi bo'lgan ota-ona qaramogida bo'lgan yetim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 6(1), 280-286.
4. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Ta'lim klasteri sharoitida erta inklyuziyaga erishish ko'zlear implantli bolalar ijtimoiylashuvining eng optimal omili. Yangi O'zbekistonda xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirishda zamonaviy yondashuvlar, 1(1), 55-65.
5. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Ta'limda tolerantlikka erishish kelajak o'qituvchisini inklyuziv ta'limga tayyorlashga erishish sharti sifatida. Zamonaviy maktabda va jamiyat aloqadorli, 1(1), 61-65.
6. Ibadullayeva, S. N., Jurayeva, Z. (2021). Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda korreksion mashg'ulotlarning ahamiyati. Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari, 1(1), 35-70.
7. Sh.N.Ibadullayeva magistrlik dissertasiya “ Ta'lim klasteri asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlash”2022 y.